

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOTURIZM VA UNI RIVOJLANTIRISH

Yaqubbayeva Ro'za Ko'palbayevna
Urganch Davlat Universiteti. Urganch

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada ekoturizm kelib chiqishi, O'zbekiston Respublikasida ekoturizm ahamiyati, ekoturizm rivojlantirish rejalari va istiqbollari, mamlakatning tog'li hududlarida ham ekologik markazlar joriy etish va shu bilan birgalikda orol dengizi masalasi, "yashil qoplamalar" haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ekoturizm, ekologiya, ekologik markaz, orol dengizi, yashil qoplamalar

O'zbekiston tog'li hududlarga boy o'lka. Agarda tog'li hududlardan ekologik markazlar, tog' kurotlari qurilsa keladigan turistlarga ham ekoturizm tog'li hududlarda qanchalik rivoj topgani qolaversa vatanimiz tog'li hududlari va shu o'rinda tog'ni qanday qilib ekoturistik markazga aylantirganimizni yaqqol namuna qilib ko'rsatardik. Bu albatta amalga oshirsa bo'ladigan mamlakatimizni yanada rivojlantira oladigan yo'ldir. Tog' havosi toza va albatta qurilsa ekoturistik markaz ham aholiga, ham davlatga daromad keladigan turistlarga foydali. Ekologiyani, qolaversa ekoturizm rivojlantirish uchun qat'iy qonunlar joriy etish, tabiatni asrab avaylash, hozirgi va bundan keyingi ekoturizmi rivojlantirish uchun aniq maqsad rejalar tuzib izchil rivojlantirib borish kerak. Ekoturizm rivojlantirish bo'yicha markazlar, tashkilotlar yaratilgan bular: «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi, Fridrix Ebyert nomli Fond (GFR) va Xalqaro «Ekosan» fondi rahbarligida o'tkazilgan «Ekoturizm va Buyuk Ipak Yo'li» 1-Xalqaro Konferensiya tavsiyalariga ko'ra tuzilgan «Ekosan-tur» markaz kabilar yaqqol namunadir. Bundan tashqari 27-may 2019-yil 433-son qaror bilan O'zbekiston Respublikasida "Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlanishi ham katta e'tibordan dalolatdir.

Tabiiy ekotizim, biogeotsenoz, biologik har xillikni saqlash va tiklash haqida ham ma'lumotlar berib borilgan. Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, suv ta'minoti, sanitar-gigienik sharoitlar, mehnat sharoitlarini yaxshilash va rivojlantirish. Iqtisodiy ko'rsatkichlar, mahalliy aholi daromadlarining o'sishi, aholi punktlarining obodligiga e'tibor qaratish. Ekologik madaniyat, madaniyat darajasining o'sishi va barqarorlashtirish. Ekoturistlarning tashrifi natijasiga ko'ra (dipkorpus missiyasi va 50 ta mamlakatdagi xalqaro tashkilot vakillari hamda 20 dan ortiq xalqaro tashkilotlar) Orolbo'yi mintaqasiga yiliga 20 mln. AQSh dollari miqdorida yordam ko'rsatildi. Suv bilan ta'minlash tarmog'i, ijtimoiy infratuzilmalar bunyod etildi, aholi punktlarining sanitar-gigienik sharoitlari yaxshilandi. Bundan tashqari karantin vaqti ham sanitariya

epidemiologik holatga e'tibor qaratildi. Buni yaqqol namunasi sifatida "Turizm sohasini sanitariya epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi" PK- 4755 19-iyun 2020-yil qabul qilingan qarori.

Ekoturizm fanga ma'lum bo'lmagan sohalari ko'p bo'lgan serqirra sohadir. Ekoturizmda yangiliklar, fan yutuqlari bisyordir. Lekin bir tarafdin eng dolzarb muammolari ham bor. Yaqin yillardagi eng dolzarb muammo "Orol dengizi" muammosi. XX asrning 60-yillarida ekin ekiladigan yerlarning kengayishi natijasida orolga keladigan suv kamayib ketdi. XX asrning 80- yillarida bu ko'rsatkichi yomonlashib, orol dengizi qurib borishiga olib keldi. Bu bo'yicha ko'plab chora tadbirlar ko'rilmogda, turli qonun va qarorlar qabul qilingan. 2020-yilning 12-fevraldagi PK- 4597 qarori bilan O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazining faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi qaror joriy etildi. Orol dengizi qurib boshlagandan keyin "Orol" atrofi aholisi juda ko'p jabr ko'rdi chunki daromadi oroldan bo'lgan aholiga oziq ovqat tanqisligi bundan tashqari kasalliklar soni keskin ortib aholini umr ko'rish ko'rsatkichi ancha pasaydi, kasallanishlar soni keskin ko'payib ketdi. XX asrning 80- yillarida bu ko'rsatkich yomonlashib, orol dengizi qurib borishi natijasida orolda turli kasalliklar tarqaldi. Masalan ayollar o'rtasida kamqonlik 60% ga oshdi, qorin tifi 30 marta, yuqumli sariq kasalligi 7 marta oshdi. Ayniqsa saroton (rak) kasalliklari ko'payib ketdi. Shunday bo'lishiga qaramasdan orol aholisi o'z vatanini tark etmadi, og'ir vaziyatda ham kurashdi.

Qurib borayotgan Orol dengizini qurishini oldini olish bo'yicha bir qancha chora tadbirlar rejasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarorlar joriy etildi. Xalqimiz ham to'xtab turgan emas, orolda suv yo'q bo'lgan joylarga turli daraxt, butalar ekib sho'rланish darajasini kamaytirishga harakat boshlab yuborildi. Buni yaqqol isboti sifatida "Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda "yashil qoplamalar" himoya o'rmonzorlar barpo etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori 15-fevral 2019-yil 132- sonli qarori qabul qilindi.

Hozirgi davrda urbanizatsiya (shaharlashuv) darajasi tez suratlarda oshirilayotganligi, turli zavod fabrikalar soni keskin ko'payib ekologiyaga ham ta'sir etib turibdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2019-2020-yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi 119-sonli 13-fevral 2019-yil qabul qilingan. Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora tadbirlar to'g'risidagi 198-son 8-mart 2019-yildagi qarorlar yaqqol namuna sifatida keltirib o'tishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak turizm va uning sohasi bo'lgan ekoturizmni yanada rivojlantirib, ekoturistik markazlar sonini oshirish natijasida tog'li hududlarga ham

turistlarni jalb etish. Jahon reytingida mamlakatimizni ekoturistik markaz sifatida tan olishga erishish. Dunyo mamlakatlari bilan ekoturizm sohasi bo'yicha hamkorlik qilish uchun turli yig'ilishlar konferensiyalar o'tkazish. Bundan tashqari ekologik ta'limga ham e'tibor qaratib mamlakat miqyosida tashabbuskor loyihalar, chora tadbirlar olib borish. Shu orqali mamlakat butun hududida ekologik ta'lim haqida tushunchalar paydo qilish. Turli tashkilotla, ekologik davlat idoralari, ekologik markazlar bir tuzilma bo'lib ishlashini yo'lga qo'ysak rivojlanish darajasi bir qadar ilgarilagan bo'lar edi. Orolga foydali bo'ladigan qarorlar, qonunlar qabul qilish. Jon jahdimiz bilan Orol aholisiga yordam berishga intilish. Og'ir vaziyatdan bartaraf bo'lgunimizga qadar bir tanu bir jon jon bo'lib harakat qilsak albatta maqsadimiz amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.M.Xoshimovning „ Ekoturizmga oid ilmiy qarashlarini amaliyotga tadbiq etish strategiyasi"
2. M.A.Xoshimov "O'zbekistonda ekologik turizm", "Zarafshon" nashiriyoti DK.
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Ekoturizmi
4. ЎзР Қонунчилиги/ Таълим. Фан. Маданият/ Фан/ Илмий ташкилотлар/ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 12.02.2020 й. ПҚ-4597-сон "Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Оролбўйи халқаро инновация марказининг фаолияти самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Қарори
5. Орол дегизи тубидagi суви қуриган ҳудудларда "yashil qoplamalar" himoya o'rmonzorlar barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-4662194>